

JOURNAL OF ENVIRONMENTAL AND LAND LAW (JELL)

LAW • ENVIRONMENT • SUSTAINABILITY • JUSTICE

OPEN
ACCESS

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL

OUR FIELDS

- Land law and agrarian relations
- Environmental law and climate change
- Water law and transboundary cooperation
- Urban planning and zoning law
- Natural resources and energy law

OUR INDEXING

Google Scholar

Zenodo

DOI

OpenAIRE

Open Access

DOAJ



<https://unireview.uz/index.php/jell>



Published by
UniLex Global, Uzbekistan



VOLUME 1

ISSUE 1



JUNE 2026



"UNILEX GLOBAL" LLC

Ekologiya va yer huquqi jurnali / Journal of Environmental and Land Law

**June, 2026
VOLUME 1, ISSUE 1**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Members Kholmuminov Juma Toshtemirovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Members Fayziev Shukhrat Khasanovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Members Uzakova Gozal Sharipovna** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Members Narzullaev Olim Kholmamatovich**, Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial board members Kenjaev Rustam Khaydarovich**, Candidate of Legal Sciences (PhD), Professor, Head of the Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Members Utegenov Ongarbay Dariyabayeovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Finance, Tashkent University of Chemical Technology – International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Members Hayitov Hasan Shermatovich** - Candidate of Legal Sciences (PhD), Investigator, Shykhontohur District Division, Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Members Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** - Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) "Academy of Labor and Social Relations" under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Members Nishonov Abdulloh Ubaydulloh ugli** - Senior Lecturer Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Members Makhkamov Durbek Nematovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Dean, Faculty of Public Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Members Usmanov Muhammad Bahritdinovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Members Juraev Yuldash Achilovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Associate Professor Senior Researcher, Parliamentary Research Institute under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Members Nurmatov Mirgolib Mirzayevich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Special Legal Sciences and Military Diplomacy, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Members Bobokulov Shoxnazar Ochilovich** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Acting Professor, Department of Legal Sciences, Tashkent International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Members Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor Associate Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Members Allayorov Tulqin Ruziqulovich** - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.



Original research article

EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya va huquq” fakulteti
yurisprudensiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Ataboyev Javoxir Sarvar o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya va huquq”
fakulteti yurisprudensiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

ekologik xavfsizlik
yashil taraqqiyot
barqaror rivojlanish
huquqiy asoslar atrof-
muhit
suv resurslari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistondagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar, xalqaro tajriba hamda milliy qonunchilikdagi so'nggi islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, yashil taraqqiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

LEGAL FRAMEWORK FOR ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY

ARTICLE INFO

Keywords: ecological
safety green
development
sustainable development legal
framework environment
water resources

ABSTRACT

This article analyzes the legal framework, international experience, and recent reforms in national legislation aimed at ensuring environmental safety in Uzbekistan. It also considers priority areas of environmental protection based on the principles of green development and sustainable development.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

экологическая
безопасность зеленое
развитие устойчивое
развитие правовые
основы окружающая
среда
водные ресурсы

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовые основы, направленные на обеспечение экологической безопасности в Узбекистане, международный опыт и последние реформы в национальном законодательстве. Также будут рассмотрены приоритетные направления охраны окружающей среды на основе принципов зеленого развития и устойчивого развития.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson huquqlari, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik alohida e’tiborga ega. Xususan, ekologik xavfsizlik masalasi milliy va xalqaro huquqiy normalar doirasida tizimli islohotlarni talab etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni asrash, suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali yashil taraqqiyotga erishish – zamonaviy davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Haqiqatan ham, hozirda barcha nufuzli xalqaro tashkilotlar dasturlarida, mamlakatlararo diplomatik munosabatlarda ekologik xavfsizlik hamda yashil taraqqiyot g‘oyasi yuqori o‘ringa chiqdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bizning mamlakatimiz ham ana shu muhim jarayonning bir a‘zosi sifatida ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi bir qancha xalqaro bitimlarga qo‘shilgani sohadagi hamkorlikning o‘ziga xos takomili uchun asos bo‘lmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, bir qator qonunlar va qonunosti hujjatlarida ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi zaruriy huquqiy normalar belgilab olingani ham alohida e’tiborga loyiqdir.

Prezidentimiz tomonidan 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlanishi zamirida ham ekologik barqarorlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda yashil texnologiyalarni keng joriy etish maqsadlari yotibdi. [1] Bu tashabbus ekologik muammolarga e’tiborni kuchaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni ilgari surish va insonlarning ekologik madaniyatini

shakllantirishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Shubhasiz, ekologik barqarorlik va suv resurslaridan oqilona foydalanishning ahamiyati bugungi kunda asosiy ustuvor vazifalarimizdan biriga aylandi. Ekologik xavfsizlikning asl mohiyati bu - inson va atrof-muhitning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tizimli choralar majmui bo'lib, jamiyat tomonidan tabiatga zarar yetkazuvchi omillarning oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan faoliyat yig'indisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlari:

- Xavfli faoliyat turlari va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash;
- Sog'likni saqlashda ekologik ustuvorliklar;
- Favqulodda vaziyatlarda ekologik oqibatlarini oldini olish va kamaytirish;
- Atrof-muhit uchun xavf tug'diruvchi terrorizmning oldini olish
- Potensial xavfli faoliyat va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash.

Rivojlangan mamlakatlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun samarali choralar ko'rilgan. Germaniyada sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish ustuvor yo'nalish bo'lib, korxonalar chiqindilarni qayta ishlash yoki energiya manbai sifatida foydalanishga majbur. Yaponiya esa "Yashil iqtisodiyot" modelini qo'llab-quvvatlab, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan, shuningdek, zamonaviy filtr tizimlari orqali havo ifloslanishini minimallashtirgan.

AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik standartlar va sanksiyalar tizimi mustahkam yo'lga qo'yilgan. Masalan, AQSHda EPA (Environmental Protection Agency) talablariga rioya qilinmagan taqdirda, korxonalarga katta jarimalar solinadi yoki faoliyati cheklanishi mumkin. Yevropa Ittifoqida esa sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish va zararsizlantirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarga ega. [2]

Xususan, mamlakatimizda ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida 40 ga yaqin ekologik qonunlar va mingdan ortiq qonunosti normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-2024 yillar davomida ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan 27 ta holat bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lib, ularning barchasi bo'yicha yengil moliyaviy jarima jazosi qo'llanilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin noyob turdagi daraxtlar noqonuniy kesilishi oqibatida tabiatga 36 mlrd so'mlik zarar yetkazilgan. [3]

So‘nggi uch yilda qurilayotgan obyektlar soni 3 barobar oshib, daryo o‘zanlarida noqonuniy qum-shag‘al qazib olish bilan bog‘liq 303 ta holatda 268 nafar shaxslarga nisbatan 68 mlrd so‘m miqdorida jarima qo‘llanilgan, shundan 42 ta holatda 45 mlrd so‘m miqdorida tabiatga zarar yetkazilganlik uchun jinoyat ishlari qo‘zg‘atilgan.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasida o‘tgan yillar mobaynida Ekologik partiya tomonidan ham muhim ishlar amalga oshirdi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi mas‘ulligida “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeks ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari davlat inspektorining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik, shuningdek uning ko‘rsatmalarini bajarmaslik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi 197⁶-modda bilan to‘ldirildi. [4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ekologiya, atrof-muhit va suvdan foydalanish sohasidagi huquqiy normalar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida: “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” [5]

Bu konstitutsiya normasi quyidagi qonunlarga asos qilib olingan:

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.

Bu konstitutsiyaviy ekologik huquqlar O‘zbekistonda toza va xavfsiz atmosfera havosiga, toza va xavfsiz suv va suv obyektlaridan foydalanishga, qulay va xavfsiz yerga, yer osti boyliklaridan foydalanishga, o‘simlik va hayvonot dunyosidan foylanish va muhofaza qilish huquqlarini anglatadi.

Shuningdek, asosiy qonunimizning 62-moddasida: “Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga

ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlirlar” degan norma belgilangan.

Agar O‘zbekistonda inson va fuqarolar mazkur konstitutsiyaviy burchlarini buzsa O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘grisida”gi Qonuni 12-moddasining uchinchi qismi, [6] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining VIII bobi (“Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik”), O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining to‘rtinchi bo‘limi (“Ekologiya sohasidagi jinoyatlar”) [7] ni sodir qilgan bo‘ladi va ana shu qonunlarda ko‘rsatilgan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Davlat ekologik siyosati va dasturlari: Chindan ham bugungi kunda ekologik xavfsizlik mamlakatimizning rivojlanishidagi muhim omil sanaladi. Bu nafaqat Konstitutsiyamizda, balki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham muhim maqsadlar qatorida joy oldi. [8] Ushbu taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha beshta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi:

- har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali aholi farovonligini ta‘minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

2023-yilgi Dasturining 13-bandi Ekologik barqarorlikning muhim sohasi Suv xo‘jaligidagi suv resurslaridan oqilona foydalanish, 25-bandi bevosita suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yili deb nomlangan 2025 yil davlat dasturida mamlakatimizni ekologik xavfsizligi ta‘minlashdagi barqaror vazifalar belgilangan. [9]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha zarur normativ-huquqiy asoslar shakllantirilgan bo‘lib, Konstitutsiyaviy tamoyillar, maxsus qonunlar, davlat dasturlari va xalqaro huquqiy majburiyatlar orqali ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan. Chindan ham bugungi kunda amalga oshirilayotgan yashil taraqqiyot, “yashil energiya”ni rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik monitoring tizimini kuchaytirish borasidagi islohotlar ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda ayrim tizimli muammolar –

ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning yetarli emasligi, hududiy ekologik monitoringning sustligi, aholining ekologik madaniyati pastligi va xalqaro standartlarga mos infratuzilmaning yetishmasligi mavjud. Ushbu muammolarni ekologik qonunchilikni takomillashtirish, sud-huquq tizimida ekologik adliya institutlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash va eng asosiysi aholimizning ekologik huquqiy bilimlarini oshirish orqali hal etishimiz mumkin. Shubhasiz, ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Zero, yurtimizning farovon kelajagi toza atrof-muhit, sog'lom hayot va barqaror ekologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/28064>
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy sayti. URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/41852>
3. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-81-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni URL: <https://lex.uz/docs/-6479180>
4. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi. 197⁶-modda
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 49-modda. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
6. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 12-modda. URL: <https://lex.uz/docs/-107115>
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining to'rtinchi bo'limi ("Ekologiya sohasidagi jinoyatlar") URL: <https://lex.uz/docs/-111453>
8. 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 13, 25-bandi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>
9. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>